



XORAZM VOHASI O‘ZBEKLARINING AN‘ANAVIY OILAVIY MAROSIMLARIDA FARZAND TUG‘ILISHI BILAN BOG‘LIQ SEHRIY- MIFOLOGIK TASAVVURLARNING ETNOGRAFIK TAHLILI

Otaboyeva Ro‘za Qahramon qizi,

Urganch innovatsion universiteti

Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar)

bo‘yicha 4-bosqich, 23-01 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm vohasi o‘zbeklarining oilaviy marosimlar tizimida alohida o‘rin tutuvchi farzand tug‘ilishi, chaqaloq kindigi, yo‘ldoshi hamda chilla davri bilan bog‘liq sinkretik xarakterdagi e‘tiqodlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududiy o‘ziga xosliklar va ularning tarixiy ildizlari arxiv hamda dala materiallari, shuningdek, fundamental etnografik asarlar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazm etnografiyasi, oilaviy marosimlar, chilla davri, ostonaga sig‘inish, “Ostonaqul”, bolasotdi marosimi, apotropik magiya, zardushtiylik reliktlari, Xonqa dala materiallari, islomgacha bo‘lgan e‘tiqodlar.

KIRISH. Insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida oilaviy-maishiy marosimlar etnosning muhim jihati, dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlarini saqlovchi eng muhim institut bo‘lib kelgan. Markaziy Osiyoning qadimgi madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lgan Xorazm vohasi o‘zining uzoq asrlik nisbiy izolyatsiyalashgan geografik joylashuvi va o‘ziga xos etnomadaniy muhiti tufayli qadimgi e‘tiqodiy tizimlarning reliktlarini (qoldiqlarini) boshqa hududlarga qaraganda ancha barqaror va o‘ziga xos shaklda saqlab qolgan. Voha o‘zbeklarining an‘anaviy turmush tarzi va falsafasida farzand ko‘rish — oila mustahkamligi va avlod davomiyligini ta‘minlovchi eng muqaddas qadriyat hisoblangan. Shu sababli, homiladorlik davridan boshlab, bola tug‘ilishi va uning dastlabki hayotiy davri



alohida nazoratga olingan. Ushbu tizim doirasida shakllangan sehriy-mifologik tasavvurlar va magik amallar majmuasi faqatgina diniy sinkretizm (islom va islomgacha bo'lgan e'tiqodlar qorishmasi) mahsuli bo'lmay, balki go'daklar o'limining oldini olish, onalik va bolalikni biologik hamda metafizik xavflardan muhofaza qilishga qaratilgan hayotiy zaruriyat sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqotda voha an'analarining o'ziga xos jihatlari o'tgan asr arxiv manbalari va zamonaviy dala kuzatuvlari qiyosida tahlil etiladi.

Xorazm o'zbeklari mifologiyasida "ostona" shunchaki uyning kirish qismi emas, balki tiriklar dunyosi bilan ajdodlar ruhlari (arvohlar) dunyosini ajratib turuvchi muqaddas chegara hisoblangan. Shu sababli, tug'ilish marosimidagi eng muhim elementlar aynan ostona bilan bog'liq holda kechgan: "Ostonaqul" marosimi: Vohada farzandlari surunkasiga nobud bo'ladigan (bola turmaydigan) oilalarda chaqaloq tug'ilishi bilan uning kindigini xonadon ostonasiga qo'yib, ustida bolta yoki o'roq bilan kesishgan.[1] Bu odat zamirida bolani yomon ruhlardan asrash niyati yotgan. Bunday holatda tug'ilgan bolalarga ramziy ravishda Ostonaqul deb ism qo'yilgan.[2] Chaqaloq yo'ldoshi (shuningdek, kindikning kesilgan qismi) Xorazmda bekitib, begona ko'zlardan yiroq tutilgan holda xonadon ostonasi tagiga ko'milgan.[1] Bu an'ana eneolit davridagi ajdodlar kulti va unumdorlik sehrgarligi (produktiv magiya) bilan chambarchas bog'liqdir.[4] Laqay o'zbeklarda agar oila keyingi safar o'g'il ko'rishni niyat qilsa, yo'ldosh bilan birga erkaklar ramzi bo'lgan qo'yni oshig'ini, qiz ko'rishni istasa bug'doy donalarini qo'shib ko'mishgan.[3] O'rta Osiyo xalqlari hududida go'daklar o'limining oldini olish maqsadida bajariladigan eng o'ziga xos magik amallardan biri bu — "bola sotish" ssenariysidir. Bola surunkasiga turmagan oilalarda yangi tug'ilgan chaqaloqni tug'ruq jarayoni tugashi bilan darhol onasidan uzoqlashtirib, ramziy ma'noda ko'p farzandli, yoshi ulug' va boy-badavlat xonadon egalariga olib borishgan.[5] Taroziining bir pallasiga bolaning soch tolasi (yoki go'dakning o'zi), ikkinchi pallasiga esa bolaning ota-onasi tomonidan kumush tanga yoki pul qo'yilib, go'dak ramziy sotib olingan.



Sotib olingan bolalarga salbiy kuchlarni chalgʻitish va ularning uzoq yashashini taʼminlash maqsadida Sotiboldi, Adashboy, Sotqinboy, Jursinboy kabi ismlar qoʻyilgan. Bu amaliyot jin-shaxslarni chalgʻitish sehri (apotropik magiya) hisoblanib, Oʻrta Osiyoning boshqa xalqlarida ham parallel ravishda uchraydi.[6] Xorazm eʼtiqodiy qarashlarida tugʻruqdan keyingi 40 kunlik chilla (forscha “чихли” — qirq) — eng xavfli oʻtish davri hisoblanadi. Chunki bu vaqtda ona ham, bola ham “gʻayritabiiy kuchlar” (alvasti, jinlar) oldida eng himoyasiz holatda boʻladi. Vohada chilla davrida goʻdak yotgan xonada 40 kun davomida chiroq mutlaqo oʻchirilmagan, xona aslo qorongʻulikda qoldirilmagan. Bu zardushtiylikdagi muqaddas olov va yorugʻlik orqali qorongʻulikda faollashadigan yovuz ruhlarni quvish ishonchining yaqqol namunasidir.[7] Chilla xonadoniga begona kishilarning, ayniqsa tugʻmagan, motam tutgan yoki yaqinda tuqqan ayollarning kirishi qatʼiyan taʼqiqlangan.[8]

Xulosa. Xorazm vohasining anʼanaviy oilaviy-maishiy hayotida farzand tugʻilishi va uning dastlabki parvarishi bilan bogʻliq marosimlar tizimi oʻzida animizm, ibtidoiy magiya, ajdodlar kulti va zardushtiylik dinining chuqur falsafiy qatlamlarini aks ettiradi. Ostoning muqaddaslashtirilishi, uning ustida bolta yoki oʻroq yordamida kindik kesish irimi, “Sotiboldi” rituali va chilla davridagi “tugʻmagan ayol” taqiqlari shunchaki asossiz xurofotlar yigʻindisi emas. Ushbu udumlar tarixan tibbiy xizmat va sanitariya rivojlanmagan davrlarda etnosning gumanistik ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, yangi avlodni biologik hamda ijtimoiy muhofaza qilish, oilaning demografik barqarorligini taʼminlash mexanizmi vazifasini bajargan. Bugungi kunda ham ushbu rasm-rusumlarning ayrim elementlari Xorazm (xususan Xonqa tumani) oʻzbeklari oʻrtasida oʻzining etnomadaniy ahamiyatini saqlab qolganligi voha madaniyatining konservativ va oʻziga xos xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва: Наука, 1969. – С. 91-93.
2. Толеубаев А. Т. Реликты доисламских верований в семейной обрядности казахов. – Алма-Ата: Гылым, 1991. – С. 68
3. Назаров Н. Лакайлар этнографияси. – Тошкент, 2007. – Б. 6.
4. Литвинский Б. А. О древности одного среднеазиатского обычая // Краткие сообщения Института этнографии. Т. XXX. – Москва, 1958. – С. 32-33.
5. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганской долины. – Казань, 1886. – С. 174.
6. Троицкая А. Л. Первые сорок дней ребенка // Сборник Музея антропологии и этнографии. – Москва-Ленинград, 1947. – Т. XI. – С. 259
7. Boyce M. A History of Zoroastrianism. – Leiden: Brill, 1982. – P. 306.
8. Dala materiallari, Xonqa shahri 2026-yil)